


Дарахтларни кесиш ва буталаш масаласи

DAVLAT O'RMON FONDIDAN TASHQARI DARAXTLARNI VA BUTALARNI KESISHGA RUXSATNOMA OLISH TARTIBI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

O`SIMLIK DUNYOSINI MUHOFAZA QILISH VA UNDAN FOYDALANISH TO`G`RISIDA

(*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 1-son, 12-modda; 2000 y., 5-6-son, 153-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011 y., 1-2-son, 1-modda; 2013 y., 18-son, 233-modda; 2014 y., 36-son, 452-modda*)

I-modda.□ O`simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risidagi qonun hujjatlari

O`simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Ushbu Qonun tabiiy sharoitda o`sadigan o`simlik dunyosini, shuningdek, takror etishtirish va genetik fondini saqlash uchun ekib o`stiriladigan yovvoyi o`simliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

O`rmonlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni o`rmonlar to`g`risidagi□qonun hujjatlari□bilan ham tartibga solinadi.

Qoraqalpog`iston Respublikasida o`simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi munosabatlarni Qoraqalpog`iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomaga qoidalari qo'llaniladi.

2-modda.□O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari

O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

floraning tur bo'yicha tarkibini va genetik fondini tabiiy sharoitlarda saqlab qolish;
tabiiy o'simlik jamoalarining va yovvoyi o'simliklar o'sadigan muhitning bir butunligini saqlab qolish;
o'simlik dunyosidan oqilona foydalanishni va uni takror etishtirishni ta'minlash;
yuridik va jismoniy shaxslarning o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi faoliyatini huquqiy tartibga solish.

3-modda.□O'simlik dunyosiga nisbatan mulkdorlik

O'simlik dunyosi davlat mulki umummilliy boylik bo'lib, undan oqilona foydalanish zarur va u davlat muhofazasidadir.

4-modda.□O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi

O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, maxsus vakolat berilgan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi o'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida maxsus vakolat berilgan davlat boshqaruva organlaridir.

(4-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydag'i Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2000 y., 5-6-son, 153-modda)

5-modda.□O'simlik dunyosi ob'ektlari

O'simlik dunyosi ob'ektlari quyidagilardan iborat:

yovvoyi organizmlar daraxtlar, butalar va o'tsimon urug'laydigan o'simliklar, qirqulloqsimonlar, yo'sinsimonlar, suvo'tlar, lishayniklar va zamburug'lar o'zining barcha xilma-xil turlari bilan;

yovvoyi organizmlardan tashkil topadigan tabiiy o'simlik jamoalari yoki ularning har qanday majmui;

kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simlik turlari;

yovvoyi o'simliklarning mevalari, urug'lari va boshqa qismlari yoki ular hayoti faoliyatining mahsullari.

6-modda.□O`simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish

O`simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish umumiy va maxsus bo`lishi mumkin.

O`simlik dunyosi ob'ektlaridan umumiy foydalanish jismoniy shaxslar tomonidan hayotiy zarur ehtiyojlarni qondirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda va tartibda bepul amalga oshiriladi.

O`simlik dunyosi ob'ektlari maxsus foydalanishga ishlab chiqarish faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun haq evaziga yuridik va jismoniy shaxslarga ruxsatnomalar asosida berib qo`yiladi. O`simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish uchun ob'ektni, turni, hajmni va muayyan hudud doirasida foydalanish muddatini belgilaydigan ruxsatnama O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vakolatli davlat organlari tomonidan beriladi. O`simlik dunyosi ob'ektlaridan maxsus foydalanish tartibi va shartlari qonun hujjatlarida belgilanadi.

7-modda.□O`simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish turlari

O`simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish turlari quyidagilardan iborat:

chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi ozuqa mahsulotini tayyorlash;

chorva mollarni o`tlatish;

o`simlik dunyosi ob'ektlaridan ovchilik xo`jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish;

yovvoyi o`simliklar texnik xom ashyosini tayyorlash;

yovvoyi o`simliklar dorivor xom ashyosini tayyorlash (yig`ish);

yovvoyi o`simliklarni oziq-ovqat maqsadlari uchun tayyorlash (yig`ish);

daraxt va butalarni kesish;

o`simlik dunyosi ob'ektlaridan ilmiy-tadqiqot maqsadlarida foydalanish;

o`simlik dunyosi ob'ektlaridan madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy, sog`lomlashtirish, rekreatsion va estetik maqsadlarda foydalanish;

o`simlik dunyosi ob'ektlaridan tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida foydalanish.

Qonun hujjatlarida o`simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanishning boshqa turlari ham nazarda tutilishi mumkin.

8-modda.□O`simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish muddatlari

O`simlik dunyosi ob'ektlari doimiy yoki vaqtincha (uzoq muddatli va qisqa muddatli foydalanishga berib qo`yilishi mumkin.

9-modda.□O`simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish normativlari

O`simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish normativlari quyidagilardan iborat:

dorivor va oziqbop o'simliklarning yovvoyi turlarini hamda o'simliklar texnik xom ashyosini tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan kelishib tasdiqlagan kvotalar;

tabiiy pichanzorlar va yaylovlarda pichan o'rish hamda chorva mollarni o'tlatishning mahalliy davlat hokimiyati organlari tegishli qishloq va suv xo'jaligi, shuningdek, o'rmon xo'jaligi davlat organlari taqdimnomasi bo'yicha tasdiqlagan normalari va muddatlari;

qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa normativlar.

10-modda.□ O'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanuvchilarining huquq va majburiyatlar

O'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanuvchilar quyidagi huquqlarga ega:

o'simlik dunyosi ob'ektlaridan ularni berib qo'yish shartlariga muvofiq foydalanish;

o'simlik dunyosi ob'ektlarining belgilangan tartibda olingan mahsulotini tasarruf etish;

o'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish borasidagi buzilgan huquqlarning tiklanishi va o'zlariga etkazilgan zararning qoplanishi.

O'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanuvchilar:

o'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanishning belgilangan qoidalariga rioya etishlari;

foydalanishga berib qo'yilgan o'simlik dunyosi ob'ektlaridan oqilona foydalanishlari;

o'simlik dunyosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ularni takror etishtirish chora-tadbirlarini amalga oshirishlari;

o'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish joylarida yong'in xavfsizligiga rioya etishlari va yong'inga qarshi tadbirlarni amalga oshirishlari, yong'in chiqqan hollarda esa uni o'chirish choralarini ko'rishlari;

o'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanganlik uchun haqni o'z vaqtida to'lashlari shart.

O'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanuvchilar qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquq va majburiyatlarga ega bo'lislari mumkin.

11-modda.□ O'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanishni cheklash, to'xtatib turish va man etish

O'simlik dunyosi ob'ektlarini saqlab qolish va ularni takror etishtirish hamda ular o'sadigan muhitni saqlash va qayta tiklash maqsadida o'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda cheklab qo'yilishi, to'xtatib turilishi yoki man etilishi mumkin.

To'liq ma'lumot uchun qaralsin: O'zbekiston Respublikasi Er kodeksining 29-moddasi, «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonunning 34-moddasi, «O'rmon to'g'risida»gi Qonunning 40-moddasi va «Er osti boyliklari to'g'risida»gi Qonunning 10-moddasi.

Davlat qo'riqxonalarida, davlat tabiat yodgorliklarida, tabiat bog'larining va davlat biosfera rezervatlarining qo'riqxonaga aylantirilgan zonalarida o'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi, ilmiy maqsadlarda foydalanish bundan mustasno. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va

yo`qolib ketish xavfi ostida turgan o`simlik turlarini tayyorlash (yig`ish) man etiladi.

(11-moddaning ikkinchi qismi O`zbekiston Respublikasining 2011 yil 4 yanvardagi O'RQ-278-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2011 y., 1-2-son, 1-modda)

O`zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan o`simlik turlaridan foydalanish, ular bilan (ularning qismlari yoki faoliyat mahsullari bilan) savdo qilish, ularni chet elga olib chiqishga alohida hollarda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O`zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasining taqdimnomasi va O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xulosasi bo`yicha beradigan ruxsatnomalar asosida yo`l qo`yiladi.

Qo`shimcha ma'lumot uchun qaralsin: O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993 yil 3 sentyabrdagi «Qimmatbaho va yo`qolib ketayotgan o`simlik va hayvonot turlarini muhofaza qilishni kuchaytirish va ulardan foydalanishni tartibga solish to`g`risida»gi qarori, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 9 martdagи 109-sonli «O`zbekiston Respublikasining Qizil kitobi to`g`risida»gi qarori va O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 15 dekabrdagi 600-sonli «Yovvoyi o`simlik va hayvonlarni muhofaza qilishni kuchaytirish va ulardan foydalanish choralarini to`g`risida»gi qarori.

12-modda. □ Chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi ozuqa mahsulotini tayyorlash va chorva mollarni o`tlatish

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi ozuqa mahsulotini tayyorlash va chorva mollarni o`tlatish ana shu maqsadlar uchun ularga maxsus berib qo`yilgan tabiiy em-xashak etishtiriladigan maydonlarda quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

o`rmon fondi hududida — o`rmon biletlari bo`yicha;

O`zbekiston SSR Ministrler Kengashining 1987 yil 9 martdagи 104-sonli qaroriga asosan davlat o`rmon fondi erlarida yovvoyi o`simliklar dorivor va texnik xom ashyosini tayyorlash o`rmon xo`jaliklari yoki ularning topshirig`iga asosan o`rmon xo`jaligi xodimlari tomonidan beriladigan ruxsatnoma — o`rmon biletlari asosida amalga oshiriladi.

qishloq xo`jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari egaligidagi erlar hududida ularning ruxsatnomalari bo`yicha;

zaxiradagi erlarda mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari asosida.

13-modda. □ O`simlik dunyosi ob'ektlaridan ovchilik xo`jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish

Yuridik va jismoniy shaxslarning o`simlik dunyosi ob'ektlaridan ovchilik xo`jaligi ehtiyojlari uchun foydalanishi ularga o`simlik dunyosi ob'ektlarini olib qo`ymagan holda berilgan ovchilik erlarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qo`shimcha ma'lumot uchun qarang: O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 10 apreldagi «O`zbekiston Respublikasi hududida ov qilish va ovchilik-baliq ovlash xo`jaligini yuritish to`g`risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 95-sonli qarori.

14-modda.□ Yovvoyi o'simliklar dorivor va texnik xom ashyosini, oziq-ovqat maqsadlari uchun yovvoyi o'simliklarni tayyorlash (yig'ish)

Tabiiy o'simliklar jamoalarida yovvoyi o'simliklar dorivor va texnik xom ashyosini, oziq-ovqat maqsadlari uchun yovvoyi o'simliklarni yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tayyorlashga (yig'ishga) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi.

15-modda.□ Daraxt va butalarni kesish

O'rmon fondi erlarida daraxt va butalarni kesish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladigan ruxsatnomalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 22 noyabrdagi 506-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida o'rmonni parvarish qilish uchun kesish□Qoidalari.

O'rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarni kesishga faqat sanitariya maqsadlarida hamda binolar, inshootlar va kommunikatsiyalar qurilishi bilan bog'liq holdagina mahalliy davlat hokimiyati organlarining O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan kelishilgan qaroriga binoan yo'l qo'yiladi.

16-modda.□ O'simlik dunyosi ob'ektlaridan ilmiy-tadqiqot maqsadlarida foydalanish

Yovvoyi o'simliklarni, ularning qismlarini va mahsullarini o'sish muhitidan ajratib olmasdan va ajratib olgan holda o'simlik dunyosi ob'ektlaridan ilmiy-tadqiqot maqsadlarida foydalanishga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi.

Tabiiy o'simliklar jamoalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun tegishli yuridik shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maxsus uchastkalar ajratilishi mumkin bo'lib, bu uchastkalarda o'simlik dunyosi ob'ektlaridan boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning foydalanishi ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish maqsadlariga nomuvofiq bo'lsa, bunday foydalanish cheklanadi yoki man etiladi.

17-modda.□ O'simlik dunyosi ob'ektlaridan ma'daniy-ma'rifiy, tarbiyaviy, sog'lomlashtirish, rekreatsion va estetik maqsadlarda foydalanish

O'simlik dunyosi ob'ektlaridan madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy, sog'lomlashtirish, rekreatsion va estetik maqsadlarda foydalanish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Shifobaxsh xususiyatlarga ega bo'lган va aholining dam olishi uchun qulay shart-sharoit yaratadigan o'simlik dunyosi ob'ektlaridan sog'lomlashtirish va rekreatsion maqsadlarda foydalaniladi.

18-modda.□ O'simlik dunyosi ob'ektlaridan tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida foydalanish

O'simlik dunyosi ob'ektlaridan tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida foydalanish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasining «Alovida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi□Qonuni.

19-modda.□ O'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish huquqini bekor qilish

O'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish huquqi quyidagi hollarda bekor qilinadi:

o'simlik dunyosi ob'ektidan foydalanish huquqidan voz kechilganda;

belgilangan foydalanish muddati tugaganda;

o'simlik dunyosi ob'ektidan foydalanish huquqi berilgan yuridik shaxs tugatilganda;

o'simlik dunyosi ob'ektlarini muhofaza qilish, ulardan foydalanish va ularni takror etishtirish qoidalari, normativlari va boshqa talablari buzilganda;

o'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanganlik uchun haq belgilangan muddatda to'lanmaganda;

foydalanish ta'sirida tabiiy o'simliklar jamoalarida asliga qaytarib bo'lmaydigan o'zgarishlar xavfi tug'ilganda;

er uchastkalari davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilganda.

O'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish huquqini bekor qilish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

20-modda. □ Ayrim turdag'i yovvoyi o'simliklarning tarqalishini va ularning miqdorini tartibga solish

Ayrim turdag'i yovvoyi o'simliklarning (shudgorlar, pichanzorlar va yaylovlarni tabiiy suratda bosib ketadigan zaharli, giyohvand moddali, karantindagi o'simliklar, begona o'tlar hamda boshqa o'simliklarning) tarqalishini va ularning miqdorini tartibga solish boshqa o'simliklarga va o'zga tabiat ob'ektlariga zarar etkazilishiga yo'l qo'ymaydigan hamda tabiiy o'simliklar jamoalarining va ular o'sadigan muhitning saqlanishini ta'minlaydigan usullar bilan amalga oshiriladi.

Tarqalishi va miqdori tartibga solinishi lozim bo'lган yovvoyi o'simliklarning turlari, shuningdek, ana shu tartibga solish qoidasi maxsus vakolat berilgan davlat organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xulosalari asosida belgilanadi.

21-modda. □ Yovvoyi o'simliklarni boshqa joyga ko'chirish va duragaylash

O'simliklarning yangi turlarini yovvoyi floraga ko'chirish, shuningdek, yovvoyi o'simliklarni duragaylashga maxsus vakolat berilgan davlat organlari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati organlarining xulosalari chiqargan qarorga binoan ilmiy-tadqiqot va xo'jalik maqsadlarida belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi.

22-modda. □ Botanika kollektivalarini toplash

Ilmiy, madaniy-ma'rifiy, o'quv-tarbiyaviy yoki estetik qimmatga ega bo'lган botanika kollektivalarini davlat hisobidan o'tkazilishi lozim.

Botanika kollektivalarini toplash va ularni to'ldirib borish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning yovvoyi o'simliklarni olishiga qonun hujjatlari talablariga rioya etilgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Botanika kollektivalarining egalari bo'l mish yuridik va jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan hisobga olish, to'ldirib borish, asrash, sotib olish va

sotish, jo`natish, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va undan olib chiqish qoidalariiga rioya etishlari shart.

23-modda.□ O`simlik dunyosi ob'ektlarini muhofaza qilish va takror etishtirish

O`simlik dunyosi ob'ektlarini muhofaza qilish va takror etishtirish quyidagi yo`llar bilan ta'minlanadi:

O`simlik dunyosi ob'ektlarini muhofaza qilish, ulardan foydalanish va ularni takror etishtirish qoidalari va normativlarini belgilash;

O`zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo`qolib ketish xavfi ostida turgan o`simliklar turlarini muhofaza qilishning alohida rejimini belgilash;

o`simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanishda cheklashlar va taqiqlar belgilash;

o`simlik dunyosi ob'ektlari o`sadigan muhitni muhofaza qilish talablariga rioya qilish;

muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etish;

(23-moddaning oltinchi xatboshisi O`zbekiston Respublikasining 2011 yil 4 yanvardagi O`RQ-278-sonli□ Qonuni□tahririda — O`R QHT, 2011 y., 1-2-son, 1-modda)

o`simlik dunyosi ob'ektlari va ular o`sadigan muhitni muhofaza qilish, ulardan foydalanish va ularni takror etishtirish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish;

davlat ekologik ekspertizasi o`tkazish;

o`simlik dunyosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish; qonun hujjatlarida belgilangan boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

24-modda.□ O`simlik dunyosi ob'ektlari o`sadigan muhitni muhofaza qilish

O`simlik dunyosi ob'ektlari o`sadigan muhitga ta`sir ko`rsatadigan faoliyat o`simlik dunyosi ob'ektlarining saqlanishini ta'minlaydigan talablarga rioya etilgan holda amalga oshirilishi lozim.

O`simlik dunyosi ob'ektlari o`sadigan muhitga salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin bo`lgan ishlab chiqarish ob'ektlarini joylashtirish va ulardan foydalanishga, yangi texnologiyalarni joriy etish, geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, foydali qazilmalarni qazib olishga, chorva mollar o`tilatiladigan hamda qishloq xo`jaligi hayvonlari haydar o`tiladigan joylarni belgilashga davlat ekologik ekspertizasining ijobjiy xulosasi mavjud bo`lganda O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi huzuridagi O`rmon xo`jaligi bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda yo`l qo`yiladi.

(24-moddaning ikkinchi qismi O`zbekiston Respublikasining 2013 yil 30 apreldagi O`RQ-352-sonli□Qonuni□tahririda — O`R QHT, 2013 y., 18-son, 233-modda)

O`simlik dunyosi ob'ektlari o`sadigan muhitni himoya qilish chora-tadbirlari bilan ta'minlanmagan ishlab chiqarish ob'ektlarini ishga tushirish hamda texnologiyalarini qo`llanish man etiladi.

O`simliklarni himoya qilish vositalari, ularning o`sishini tezlashtiruvchilar, mineral o`g`itlar va boshqa

dorilarni qo'llanish paytida o'simlik dunyosi ob'ektlari va ular o'sadigan muhitni muhofaza qilish talablari hisobga olinishi zarur. Yuridik va jismoniy shaxslar yovvoyi o'simliklar nobud bo'lishining va ular o'sadigan muhit yomonlashishining oldini olish maqsadida mazkur dorilarni tashish, saqlash va qo'llanish qoidalariiga rioya etishlari shart.

Tabiiy o'simliklar jamoalarida o'simliklarni o'zboshimchalik bilan yoqib yuborish man etiladi.

25-modda.□ O'simlik dunyosi ob'ektlarining monitoringi

O'simlik dunyosi ob'ektlarini kuzatib borish, ularning holati to'g'risida ma'lumotlarni toplash, umumlashtirish va tahlil etish atrof tabiiy muhit davlat monitoringi yagona tizimi bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

26-modda.□ O'simlik dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish va davlat kadastro

O'simlik dunyosini muhofaza qilishni ta'minlash va undan oqilona foydalanishni tashkil etish uchun o'simlik dunyosi ob'ektlari va ulardan foydalanishning davlat hisobi, o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro yuritiladi.

O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro o'simlik dunyosi ob'ektlarining jug'rofiy tarqalishi, ularning miqdori, xo'jalikda foydalanishi to'g'risidagi ma'lumotlar majmuini, ular o'sadigan muhitning tafsifini o'z ichiga oladi.

O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobi va davlat kadastro O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda yagona tizim bo'yicha yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 sentyabrdagi 343-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida Nizom tasdiqlangan.

27-modda.□ O'simlik dunyosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ustidan nazorat

O'simlik dunyosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ustidan davlat nazorati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

O'simlik dunyosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ustidan davlat nazorati O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi va «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi qonunlariga asosan amalga oshiriladi.

(27-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 4 sentyabrdagi O'RQ-373-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2014 y., 36-son, 452-modda)

O'simlik dunyosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ustidan idoraviy, ishlab chiqarish va jamoatchilik nazorati qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

28-modda.□ O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

Yuridik va jismoniy shaxslar o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish oqibatida etkazilgan zararni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda qoplashlari shart. Zararni qoplash aybdorlarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Normativ hujjatlar

 [O'zbekiston Respublikasining QONUNI 1997 yil 26 dekabrdagi 543-I-son "O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi](#)

 [O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 20 oktyabrdagi 290-sonli qarori «O'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish va o'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risida»gi nizomi](#)

Ma'lumot uchun

Andijon viloyati Tabiatni muhofaza qilish viloyat bo'limi

Telefonlar: 0 (374) 237-04-32